

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
XO'JAND DAVLAT UNIVERSITETI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
DAVLAT ADABIYOT MUZEYI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
QO'QON UNIVERSITETI

# **FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI**

*professor Ergash Ochilov tavalludining 60 yilligiga  
bag'ishlangan respublika ilmiy-nazariy  
konferensiyasi materiallari*

**“TAFAKKUR“ NASHRIYOTI  
TOSHKENT – 2025**

**KBK: 83.3(50‘)**

**UO‘K: 821.512.133.09-1**

**O-95**

**Ochilov, E.** Filologiyaning dolzarb masalalari. [matn] : Ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2025. – 656 b.

**ISBN: 978-9910-8294-7-5**

*Taniqli adabiyotshunos va tarjimon, filologiya fanlari nomzodi, professor Ergash Ochilov tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan ushbu “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-nazariy anjumani to‘plami mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning yetakchi olimlari hamda yosh tadqiqotchilarning o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti, adabiyot nazariyasi va adabiy aloqalar; xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot munosabati, badiiy tarjima va o‘zaro ta‘sir masalalari, tilshunoslik va sharqshunoslikning muhim muammolariga oid, shuningdek, olimning hayoti va faoliyati yoritilgan maqolalarni o‘z ichiga oladi.*

**Tahrir hay‘ati:**

Nizomiddin Mahmudov, Gulchehra Rixsieva, Maqsud Asadov, Boqijon To‘xliiev, Sul-tonmurod Olim, Almaz Ulviy, Shomirza Turdimov, Jabbor Eshonqul, Sayfiddin Rafiddinov, Durdona Xudoyberganova, Baxtiyor Fayzulloev, Ulug‘bek Hamdam, Qudrat Omonov, Zebo Qobilova, Xayrulla Hamidov, Dilshod Rajabov, Munisjon Hakimov

**To‘plab nashrga tayyorlovchilar:**

Munisjon Hakimov, Dilmurod Asqarov

**Taqrizchilar:**

Rahmatulla Barakaev, Olim Oltinbek,  
Marhabo Qo‘chqorova, Yorqinjon Odilov

**ISBN: 978-9910-8294-7-5**

© Ergash Ochilov, 2025 y.

© “Tafakkur”, 2025 y.

# **ADABIYOT NAZARIYASI VA ADABIY ALOQALAR**



go'zal bezaklar bilan ziynatlangan asarlar yaratmoq kerak. Shundagina "Hayot bulog'i bo'lgan she'r tufayli abadiy hayotga erishiladi". She'r (badiiy asar) orqali nafaqat shoir, balki asar qahramonlarining nomi ham boqiy qoladi. Bunga Firdavsiy "Shohnoma"sidagi Zahhok, Rustamlar, Nizomiy "Panj ganj"idagi Iskandar-u Bahromlar nomlarining boqiyligi dalildir.

Umuman, Xusrav Dehlaviy "Vasat ul-hayot" debochasida devonning yaratilish tarixi haqida ma'lumot beradi, undagi she'rlarning o'ziga xos xususiyatlarini batafsil bayon qiladi, Shu asnoda shoir o'zining adabiy-estetik qarashlarini ifoda etadi. Debocha shoir hayoti va ijod yo'lini o'rganishda muhim adabiy manba sifatida ahamiyatlidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хусрав Деҳлавий. Куллиёт. ЎзР ФАШИ, қўлёзма, инв. № 9661.
2. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар. МАТ. 20 жилдлик, 6-жилд. – Тошкент: Фан, 1990.
3. Атоуллоҳ Хусайний. Бадойиъу-с-санойиъ.- Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
4. Брагинский И.С. Из истории таджикской-персидской литератур. Избранные работы. – М.: Наука, 1972.
5. Мусаев Б.Амир Хусрав Деҳлавийнинг "Тухфат ус-сиғар" девони ғазалларининг текстологик тадқиқоти. Монография. – Тошкент: 2020.

**Orzigul HAMROYEVA,**  
*ToshDO'TAU professori v.b.,*  
*filologoya fanlari doktori*

#### **HOMIDIY BALXIY "YUSUF VA ZULAYXO" DOSTONINING QO'LYOZMA NUSXALARI**

**Annotatsiya.** "Yusuf va Zulayxo" turkum dostonlari adabiyot tarixida an'anaviy tizim asosida yaratilgani ma'lum. O'zbek adabi-

yotshunosligida Durbek muallifligi ostida nashr etilgan, qayd etilgan turkiy doston “Yusuf va Zulayxo” dostoni qayta tadqiq va izlanishlar natijasida Homidiy Balxiy tomonidan yaratilgani isbotlandi. Maqolada ushbu turkiy doston va uning qo‘lyozma nusxalari tavsifi keltirildi.

**Kalit so‘zlar:** doston, qo‘lyozma, toshbosma, dastxat, kotib, xat-tot, indeks.

**Аннотация.** Известно, что эпосы серии «Юсуф и Зулайхо» были созданы на основе традиционной системы в истории литературы. В результате переосмысления и исследования тюркского эпоса «Юсуф и Зулайхо», изданного и записанного под авторством Дурбека в узбекском литературоведении, доказано, что его создателем был Хамидий Балхий. В статье дается характеристика этого тюркского эпоса и его рукописных списков.

**Ключевые слова:** эпос, рукопись, литография, автограф, пи-сец, каллиграф, индекс.

**Annotation.** It is known that the epics of the “Yusuf and Zulaykho” series were created on the basis of a traditional system in the history of literature. As a result of re-examination and research of the Turkic epic “Yusuf and Zulaykho”, published and recorded under the authorship of Durbek in Uzbek literary studies, it was proven that it was created by Hamidiy Balkhiy. The article provides a description of this Turkic epic and its manuscript copies.

**Key words:** epic, manuscript, lithograph, autograph, scribe, calligrapher, index.

Adabiyot tarixida Yusuf va Zulayxo obrazi, syujet chizig‘i aso-sida tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar yaratish adabiy an‘ana sifa-tida bir necha asrlik tarixga ega. Turkiy adabiyotda ham arab, fors adabiyoti kabi “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar-ning yaratilishi qadim tarixga ega.

Olimlarning tadqiqotlari va izlanishlariga ko‘ra turkiy ada-biyotda Yusuf va Zulayxo mavzusidagi ilk badiiy asar Qul Ali-ning “Qissasi Yusuf” asari bo‘lib, 1212-yilda yaratilgan. Keyingi yillarda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlari davriy jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *XIII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dos-tonlar.*

2. *XIV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

3. *XV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

4. *XVI asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

5. *XVII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

6. *XVIII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

7. *XIX asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.*

**XIII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XIII asrda yaratilgan bu turkum asarlar sirasiga Qul Alining “Qissayi Yusuf”, Mahmud Kirimlining “Yusuf va Zulayxo” dostoni, Ali Xalilo’g’lining “Yusuf va Zulayxo” dostonilarini kiritish mumkin. Bu turkum asarlari tadqiqi borasida turkiy adabiyotda etarlicha tadqiqotlar olib borilgan.

**XIV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XIV asrga kelib Yusuf va Zulayxo mavzusi an’anaviy obraz, an’anaviy syujet sifatida juda ko’p asarlarning yaratilishiga, erkin tarjima qilinishiga zamin yaratdi. Sheyod Hamzaning “Dostoni Yusuf”, Faqih Sulening “Yusuf va Zulayxo”, Darir Erzurumluning “Qissayi Yusuf”, Ahmadning “Yusuf va Zulayxo”, G’aribning “Yusuf va Zulayxo” dostonlari ana shu an’ana natijasida yaratilgan.

**XV asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XV asr adabiyot tarixida “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlarning yaratilishi jihatdan eng yuqori o’rinda turadi. Bu davr Yusuf va Zulayxo obrazi yuksak darajadagi badiiy obraz darajasiga ko’tarildi. Tabrizli Ahmadiyning “Yusuf va Zulayxo”, Mustaf Shayo’g’lining “Qissasi Yusuf”, Hamidulloh Hamdiyning “Yusuf va Zulayxo”, Chokariyning “Yusuf va Zulayxo”, Abdulvahobning “Yusuf va Zulayxo”, Abdulmajid Kirimlining “Munis ul-ushshoq”, Ahmadiyning “Qissayi Yusuf”, Xatoiy Tabriziyning

“Yusuf va Zulayxo, Bekoiyning “Yusuf va Zulayxo” kabi dostonlari ayni davr mahsuli sifatida yaratilgan.

**XVI asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XVI asrda yaratilgan dostonlar an’ananing uzviy davomi sifatida mustaqil va erkin tarjima shaklida yuzaga keldi. Kamol Poshozodaning “Yusuf va Zulayxo”, Abdurahmon G’uboriyning “Yusuf va Zulayxo”, Sharifiyning “Yusuf va Zulayxo”, Yusuf Ziyoiyning “Yusuf va Zulayxo”, Likoiyning “Yusuf va Zulayxo”, Karamanli Kamiy Sayyid Muhammadning “Yusuf va Zulayxo”, Yahyo Tojljalining “Yusuf va Zulayxo”, Kadi Senanning “Yusuf va Zulayxo”, Jaliliyning “Yusuf va Zulayxo”, Ne’matullohning “Yusuf va Zulayxo”, Bag’dodli Zihni Abduddalilning “Yusuf va Zulayxo” dostonlari. XVI asrda yaratilgan muhim manbalardandir.

**XVII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XVII asrda “Yusuf va Zulayxo” turkum dostonlari u qadar ko’p yaratilmagan. Bu davr mahsuli sifatida Abdulhay Rif’atiyning “Yusuf va Zulayxo”, Shayx Umar Xalvatiyning “Yusuf va Zulayxo”, Bursali Havoiy Mustafoning “Yusuf va Zulayxo” dostonlarini keltirish mumkin.

**XVIII asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** Diyorbakirli Ahmadiyning “Yusuf va Zulayxo”, Bilolning “Qissayi Yusuf”, Nurmuhammad Andalibning “Yusuf va Zulayxo”, Mulla Hasanning “Yusuf va Zulayxo”, Mehmet Navro’ziyning “Yusuf va Zulayxo”, Asad Posho Kupruluzodaning “Yusuf va Zulayxo”, Abdurahmon Afandi Havoiyning “Yusuf va Zulayxo” dostonlari XVIII asrda yaratilgan muhim manbalardandir.

**XIX asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlar.** XIX asrda yaratilgan “Yusuf va Zulayxo” turkumidagi dostonlarining aksariyati erkin tarjimalardan iborat bo’lib, Abdurahmon Jomiyning “Yusuf va Zulayxo” dostoni tarjimasi asosida asarlar bu davr “Yusuf va Zulayxo”lari uchun zamin yaratdi. Mehmed Izzat Poshoning “Yusuf va Zulayxo” va Rif’atning “Yusuf va Zulayxo” dostonlari Jomiy dostonining tarjimasi sifatida turkiy adabiyotda o’z o’rniga ega.

Homidiy Balxiy (Durbek)ning “Yusuf va Zulayxo” dostonining bir qancha qo’lyozma nusxalari mavjud bo’lib, bu nus-

xalar jumlasidan eng qadimiy qo'lyozma Turkiyaning To'pqopi muzeyi kutubxonasi fondida № R.832 inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxa bo'lib, hijriy 922-yil milodiy 1516-yilda Hirotda ko'chirilgan. Qo'lyozmaning dastlabki sahifasida Usmonli davlati muhri urilgan. Qo'lyozma nusxa matni noziklik bilan nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozmaning unvon qismi maxsus naqshlar bilan bezatilgan. 80 varaqdan iborat ushbu nusxa sahifalari 17 satrlik misralar joylashtirilgan.

Ushbu nusxa Homidiy Balxiyning "Yusuf va Zulayxo" turkum dostonlari orasidagi davriy jihatdan eng qadimiy nusxa bo'lib, turk olimasi Xolida Jamil Do'lu 1952-yilda Istanbul universiteti adabiyot fakulteti turk tili va adabiyoti jurnalining 4-sonida "Yusuf hikoyasi" haqida bir necha so'z va va ba'zi turkcha nusxalar" sarlavhali maqolasini e'lon qildi. Ushbu maqolada dostonning bu nusxasini forsiy tilda nasrda yozilgan asarning turkiycha (chig'atoycha)dagi she'riy tarjimasi sifatida keltiradi. Qo'lyozma 1516-yilda Hirotda ko'chirilgan.

1. Dostonning keyingi nusxasi hijriy 971-yil, milodiy 1563-yilda ko'chirilgan bo'lib, bugungi kunda Parij Milliy kutubxonasi fondida suppl. №1365 inventar raqami ostida saqlanadi.

2. Homidiy Balxiy (Durbek)ning "Yusuf va Zulayxo" dostonining keyingi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi №1433 inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxadir.

Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi ushbu qo'lyozma matni turli davrlarda keyingi manbalar uchun asos manba bo'lib xizmat qilgan. Ushbu qo'lyozma nusxa faqat "Yusuf va Zulayxo" dostoni matnidan iborat bo'lib, dostonning boshlang'ich qismi, qo'lyozmaning dastlabki sahifasida maxsus unvon naqshli tarzda keltirilgan. Unvon "basmala" qism bilan boshlanadi. Qo'lyozmaning keyingi sahifalarida maxsus jadvallar orasi ikki qismga ajratilib, baytlar keltirilgan. Dostondagi sarlavhalar maxsus qizil siyohda ajratilib ko'rsatilgan, poygirlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi №1433 inventar raqami ostida saqlanuvchi ushbu nusxa boshqa nusxalardan farqli o'laroq dastlabki sahifasi alohida naqshlar bilan bezatilgan. Qo'lyozma nusxaning ba'zi sahifalaridagi dog'lar matn sifatiga zarar keltirgan. Qo'lyozma hijriy 1024 yilda Muhammad Sa'id bin Mirzo Muhammad Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. 94 varaqdan iborat.

3. "Yusuf va Zulayxo" dostonining yana bir qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi 4-qo'lyozma nusxasi mavjud bo'lib, qo'lyozmalar matni bir-biriga juda o'xshash. Qo'lyozma 7621/1 inventar raqam ostida saqlanayotgan nusxa bo'lib, qo'lyozmaning ust muqovasi gulli matodan qilingan. Qo'lyozma nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, 87 varaqdan iborat. Qo'lyozmaning kim tomonidan qachon ko'chirilgani noma'lum. Doston 61 varaqdan iborat. Boshlanishi yo'q. 1a - 62a sahifagacha "Yusuf va Zulayxo" dostoni matni keltirilgan.

4. Dostonning yana bir nusxasi № 7412 inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxa bo'lib, bu nusxa bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanadi. Qo'lyozmada jamlanma shaklida bo'lib, qo'lyozmaning 114-sahifasidan 135-sahifasiga qadar "Yusuf va Zulayxo" dostoni ko'chirilgan. Qo'lyozma hijriy 1238 yilda Rahimquli bin Qodirquli tomonidan ko'chirilgan. Doston matnining hajmi 18 varaqdan iborat.

Ushbu qo'lyozmadagi matn ham an'anaviy boshlanish shakliga ega, nasta'liq xatida ko'chirilgan. Maxsus unvon bilan bezatilgan qo'lyozmaning dastlabki sahifasi "basmala" qism bilan boshlanadi. Boshqa nusxalar kabi ushbu qo'lyozma ham 4 ustunga ajratilgan, sarlavhalar qizil siyohda ajratib ko'rsatilgan. Bu qo'lyozma nusxaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, hoshiyalarda matnga qo'shimchalar, tushuntirish va izohlar, glossariylar keltirilgan.

Qo'lyozmaning kalofon qismida dostonning ko'chirilgan yili keltirilgan.

5. "Yusuf va Zulayxo" dostonining keyingi nusxasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi № 815 inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxadir. Ushbu qo'lyozmaning 35-sahifasidan 59-sahifasiga qadar doston matnidani iborat. Doston nasta'liq xatida ko'chirilgan. Qo'lyozmada maxsus kalofon keltirilgan bo'lib, qo'lyozma hijriy 1266 yilda ko'chirilgani qayd etilgan. Bu qo'lyozma Buxoro amiri Muzaffarning o'g'li Hashmat taxallusi bilan she'rlar yozgan Mir Siddiq bin Muzaffar kutubxonasiga tegishli bo'lgan.

Qo'lyozmada asosiy unvon, unvon ichida "basmala" qismi keltirilgan. Unvon maxsus naqshlar bilan bezatilgan. Doston tarkibidagi sarlavhalar qizil siyohda maxsus belgilar bilan ajratilib yozilgan. Qo'lyozma varoqlari 4 qismga ajratilgan, to'rt qism maxsus qora va qizil siyohdagi jadval bilan ko'rsatilgan. Poygirlari mavjud, qo'lyozma varoqlari orasida bir o'rinda gloss keltirilgan. Bu qo'lyozma nusxada bir qancha asarlar jamlangan bo'lib, "Yusuf va Zulayxo" dostoni matni 35-sahifadan boshlanadi.

6. "Yusuf va Zulayxo" dostonining yana bir nusxasi Buxoro adabiyot va san'at muzeyida № 28791/II inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxadir. 149-sahifadan iborat ushbu qo'lyozmada faqat "Yusuf va Zulayxo" dostoni matni keltirilgan. Ushbu qo'lyozma nusxa ham nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, ikki ustunga ajratilgan. Doston sarlavhalari maxsus qizil siyohlarda ajratilgan, maxsus naqshli unvoni mavjud bo'lmasada, an'anaviy "basmala" qism bilan boshlanadi.

Bu qo'lyozma nusxa ham nasta'liq xatida ko'chirilgan bo'lib, sahifalarida shikastlangan o'rinlar mavjud emas. Poygir va hoshiyalarida izohlari mavjud. Qo'lyozmaning so'ngida maxsus kalofon keltirilgan bo'lib, hijriy 1249-yilda ko'chirilgani qayd etib o'tilgan. Kalofonning so'ngi qismida boshqa rangdagi siyohda "Yusuf va Zulayxo" Durbek" so'zlari yozilgan. Bu yozuv

ushbu qo'lyozmani tadqiq etgan olim tomonidan keyingi davrlarda qo'shib qo'yilgani seziladi.

7. "Yusuf va Zulayxo" dostonining yana bir nusxasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida № 128 inventar raqami ostida saqlanuvchi nusxa bo'lib, boshqa nusxalarga nisbatan ancha urinib qolgan, boshlang'ich sahifalari yo'q, bir necha marotaba restavratsiya ishlari amalga oshirilgan. Qo'lyozmaning dastlbaki sahifasining so'nggida qalamda "1218 h.da yozilg'andir" jumlasini yozib qo'yilgan. Qo'lyozmaning kalafon qismi mavjud emasligi bois qo'lyozma bo'yicha tadqiqot olib borgan olim qalamda bu izohni yozib qoldirgan. Qo'lyozmada doston matni ikki ustun shaklida yozilgan, sarlavhalar maxsus ajratilmagan, ba'zi o'rinlarda qismlarni ajratish maqsadi bilan bo'sh o'rinlar keltirilgan bo'lsa, ba'zi o'rinlarda bu tartibga rioya qilinmagan. Qo'lyozmada poygilar, hoshiyalarda glosslar etarlicha uchraydi. Qo'lyozma so'nggi tugallanmagan.

8. "Yusuf va Zulayxo" dostonining nisbatan keyingi davrlarda ko'chirilgan nusxasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyida № 830 inventar raqami ostida saqlanadi. Ushbu nusxa O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Qo'lyozmalar fondida saqlanuvchi №1433 va №185 inventar raqamli nusxalardan foydalanib ko'chirilgani ta'kidlangan. Biroq ushbu nusxa uchun tayanch nusxa sifatida № 1433 inventar raqamli nusxa asos bo'lganligi alohida qayd etib o'tilgan. Ushbu qo'lyozma nusxa adabiyotshunos, matnshunos olim Abdulla Nosirov tomonidan 1941-yilda ko'chirilgan. Olim dostoni matnini keltirishdan oldin, ikki nusxada uchrovchi farqli jihatlarni maxsus jadval ostida taqdim etadi.

Abdulla Nosirov ushbu qo'lyozmani mavjud qo'lyozmalar ko'chirilish uslubiga hamohang tarzda 4 ustunga bo'lgan holda ko'chirganini, doston sarlavhalari alohida qizil siyohda ajratilgani keltirib, 93 sahifadan iboratligini ta'kidlaydi. Qo'lyozmada doston boshlang'ichi qismida doston va uning muallifi borasida va shu bilan birgalikda o'zi foydalangan qo'lyozma nusxaning

shakliy belgilari xususida ma'lumot keltiriladi: "Ushbu "Yusuf Zulayxo"ning asli nusxasi haqida ma'lumot tubandagicha bo'lib, Durbek tarafidan manzum ichra 812-chi hijriyda yozilgan. Matn shul yozilgan nusxa asli Balxda 1266nchi hijriyda ko'chirilgan bo'lib, ko'chiruvchining asli yo'q. Varog'i 24 varoq bo'lib, bir sahifada 27 xatdan 1349 xat yokim 4698 misra bo'lib, satri o'lchovi 26\*46, yozuvi nasta'liq xati ila bo'lib, tili chig'atoy..." Qo'lyozma so'ngidagi kalafon ham an'anaga muvofiq keltirilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, "Yusuf va Zulayxo" dostonining ushbu qo'lyozma nusxalari keyinchalik bir qancha nusxalarni ko'chirishda asos manbalar vazifasini bajargan. Dostonning qo'lyozma nusxalari doston muallifi masalasiga oydinlik kirituvchi muhim manbalar sanalib, ushbu nusxalarning qiyosiy tahlili turkiy tildagi Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo" dostoni Homidiy Balxiyniki ekanligini ko'rsatdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Halide Cemil Dolu, Sultan Hüseyin Baykara adina yazilmiş Cagatayca manzum bir Yusuf hikayasi // Turk dili va adabiyoti dergisi. – Istanbul, 1954. 5-jild, 51– 58 s.

2. Halide Cemil Dolu. "Yüsuf hikayesi" hakkında birkaç söz va va bazi türkcea nushalar // Turk dili va adabiyoti dergi. – Istanbul. 1952, 4-son, 431 – 435 s.

3. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. – Istanbul To'pqqopu saroyi ravon ko'shki. № 832.

4. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Parij nusxasi. Parij milliy kutoubxonasi. Suppl. No (1365).

5. "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Aburayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti va Davlat adabiyot muzeyi fondi № 1433; № 3 – 185; № 7412-raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozmalar.

6. Vohidiy Juzjoniy. Homidiy Balxiy – Ahmadiy Balxiy – Durbek Balxiy // "Yulduz". № 253, 254, 255, 256, 257, 258, 259, 260. 1983.

## MUNDARIJA

### ADABIYOT NAZARIYASI VA ADABIY ALOQALAR

Султонмурод Олим. Серистеъдодлилик .....	4
Баҳодир Карим. Диний-тасаввуфий таҳлил методи ...	18
Иброҳим Худоёр. Ваҳйи дил дар мероси андешагони ориф Меҳнавий Абусаид Абулхайр .....	27
Ахлоқ Аҳмад Оҳан. Вежагиҳои шеърӣ форси ва шеърӣ Бедил.....	33
Salidə Şərifova. Xəlil Yusiflinin elmi tədqiqatlarında Şərq intibahı .....	40
Abdug'opir Qosimov, Oybek Xolmatov. Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlarida askar ruhiyati talqini .....	60
Мавчуда Ўрунова. Санъати муодила дар ғазалиёти Соиб.....	66
Адҳамбек Алимбеков. Озарбайжоннинг биринчи шоираси – Маҳсатий Ганжавий .....	77
Ўктамали Сатторов. Адабий таъсир ва ижодий ўзига хослик .....	88
Рустам Умурзаков. Бола образининг назарий муаммолари .....	97

### O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MASALALARI

Илѐс Исмоилов. Тўрт муножот шарҳи .....	107
Мутабар Шарипова. Особенности суфийской прозы и проза Ходжа Абдаллаха Ансари .....	113
Farida Karimova. Xusrav Dehlaviyning "Vasat ul-hayot" devoni debochasida badiiy ijod masalalari .....	124
Орзигул Ҳамроева. Ҳомидий Балхий "Юсуф ва Зулайхо" достонининг кўлѐзма нусхалари .....	132
Мавлонберди Суюнов. Матла ва унинг ғазалдаги ўрни.....	141

Феруза Қаямова. Қиссаи «Шайх Санъон» ва аҳамияти он дар дostonҳои туюри (дар мисоли “Мантиқу-т-тайр”и Аттoр ва ҷавобияҳои туркии он) .....	148
Зариф Қувонов. “Хамса” поэтикаси тадқиқи: анъана ва янгиҷа ёндашув тамойиллари .....	158
Мўминжон Сулаймонов. Ҳофиз Хоразмий лирикасида маъшуқа образи .....	164
Nasima Qodirova. Adabiyotning fidoyilaridan biri... ..	178
Dilmurod Asqarov. Amiriy muxammaslarida muqayyad qofiya unsurlari .....	187
Муҳаммадқосим Олимов. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг “Бобурнома” асарида бошқарув санъати ҳақида ..	196
Ҳафиза Абдураимова. Навоийгача бўлган туркий адабиётда Искандар мавзуси талқинлари .....	214
Шоирахон Кенжаева. Носируддин Рабғузӣ ижодида дунё образининг бадиий-эстетик ифодаси .....	219

## **XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI VA HOZIRGI ADABIY JARAYON**

Жаббор Эшонқул. Ғафур Ғуломнинг бадиий маҳорати.....	226
Улуғбек Ҳамдамов. Чўлпон ҳаёти ва ижодига умумий бир назар .....	238
Sanobar To‘laganova. “Uloqda” hikoyasida jadid g‘oyalari talqini .....	248
Марҳабо Қўчқорова. Руҳий кечинмалар таҳлили Муҳаббат Сафо талқинида .....	252
Олим Олтинбек. Рауф Парфи шеърларининг баъзи поэтик воситалари .....	263
Мунисжон Ҳакимов. Омон Матжон шеърлятида сатирик ифода.....	277
Ғайрат Мажид. Ҳамид Олимжон ижодида халқ оғзаки ижоди анъаналари .....	286
Nodira Yangibayeva, Mohigul Rahimova. Intertekstuallik poetikasida iqtibosning vazifasi .....	294

Zebuniso Amirkulova. Reflection of the national heroic movement in the image of the historical image “Nur kurbashi” ...	303
Havasxon Salixodjayeva, Tanzila Zokirova. Asqad Muxtor she’r-larida qo’llangan frazeologizmlarning lingvostilistikasi.....	310
Xurshida Nishonova. Poetik obraz nazariyasining evolyut-siyasi.....	316
Дилноза Умарова. Қайта қуриш даври матбуотида полемика .....	329
Tursunoy Yo’ldoshyeva. Usmon Azim she’riyatida sog’inch-ning badiiy talqini .....	337
Ma’muraxon Madaminova. Shavkat Rahmon she’riyatidagi peyz lirikasining poetik tahlili .....	342
Турсуной Шарипова. Parodiya intertekstual matn sifatida .....	349
Sevinch Omonova. “Xamsa” dan taralgan yog’du .....	354

## **TARJIMASHUNOSLIK MUAMMOLARI**

Қосимжон Содиқов. “Сюань-Цзан кечмиши” асари қадим-ги турк таржима адабиётининг ёдгорлиги сифатида ...	366
Rustam Sharipov. Cho’lpon tarjimalari haqida ayrim mulohazalar .....	376
Хайрулла Ҳамидов, Азиза Мавлонова. Премчанднинг “Қисмат” романи ўзбек тилида .....	382
Бахтиёр Файзуллоев. Лоиқ шеърларининг ўзбекча таржималарини ўрганишга доир .....	390
Мухлиса Шарахметова. «Бобурнома»нинг урдуча таржи-масида таржима трансформацияларнинг қўлланиши ..	401
Хайрулла Ҳамидов, Гулнигорхон Мўйдинова. Вьетнам тилидаги ҳайвонлар номи асосида юзага келган мақол ва идиомалар хусусида .....	410
Iroda Fatxutdinova. Tarjimada semantik ekvivalentlik va madaniy konversiya masalasi.....	418
Kamola Yuldasheva. Sinxron tarjima jarayonidagi samarali psixo-fiziologik strategiyalar .....	423

Zuhra Tursunbayeva. Tarixiy asarlar tarjimasida arxaizm va istorizmlar masalasi .....	428
Sultonposhsha Durdiyeva. Vyetnam va o'zbek folklorida tabiat va qahramonlik timsollari: qiyosiy tahlil .....	434
Kamola Raxmatjonova. O'zbek kitobxonlariga notanish madaniyat realiyalarini yetkazishda tarjimon mahorati. ....	438
Feruza Ismoilova. Diniy terminlar inglizcha tarjimasini murakkabliklari .....	445
Kamola Rasulova. Oybek asarlari va ularning tarjimalarida onomatopeyalar: badiiyat va tarjima muammolari .....	452
Feruza Sapayeva. Qofiya talablarining tarjimada aks etirishi.....	462

## **FOLKLOR VA YOZMA ADABIYOT MUNOSABATI**

Собит Авезов. Бухоро фольклоридида афсона ва ривоятларнинг жанрий хусусиятлари .....	475
Ulug'murod Amonov. Бухоро folklorshunoslik maktabi haqida.....	480
Дилшоджон Турдалиев. Фольклорные мотивы в сказках А.С. Пушкина: диалог традиции и авторской интерпретации .....	488
Xumora Najimova. Hozirgi o'zbek adabiyotida stilizatsion folklorizm .....	494
Mahliyo Teshabayeva. Turkiy xalqlar folklorida notiqlik mahoratining rivoj topishi .....	500
Dilshod Karimov. Hozirgi she'riyatda folklorizmlar .....	505

## **TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI**

Durdona Xudoyberganova. Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o'rni .....	518
Олимджон Касимов, Мартаба Султонзода. Топонимический код некоторых городов-стран в тексте "Шахнаме" Фирдоуси .....	526

Muhammadxon Hakimov. Matn va badiiylik kategoriyasi xususida .....	537
Мўсо Олимҷонов. Мавқеи як калимаи аслии тоҷикӣ дар ғановати таркиби луғавии забони ўзбекӣ .....	549
Yorqinjon Odilov. Globallashuv davri o'zbek publitsistik uslubi taraqqiyotida o'zlashma tarkibli yasalmalarning o'rne.....	561
Rahimboy Jumaniyozov. O'qituvchilarning nutq madaniyati va ma'naviy tarbiyasini rivojlantirish metodikalari, usullari va vositalari .....	570
Sayyoraxon Qurbonova. Atoqli otlarning pragmatikasi ..	582
Svetlana Khudayberdieva. Psycholinguistic experiments and their types .....	589
Abdumannon Hasanov. So'z birikmasining nominativ imkoniyatlari haqida .....	595
Тоҳир Турдибоев. Алишер Навоийнинг форс-тожик тилига муносабати масаласига доир .....	601
Muxtorali Zokirov. Tillar aloqasining jamiyat hayotidagi lingvistik va madaniy jihatlari haqida .....	606
Хайрулла Ҳамидов. Туркияда нашр этилган энг янги ўзбекча-туркча луғат хусусида .....	612
Абдуназар Раҳмонқулов. Муқимий назму наволари тадқиқи сари... ..	620
Vazira Xamidova. Fors va o'zbek tillarida hisob so'zlarning lingvomadaniy xususiyatlari .....	629
Gulnura Usenbayeva. O'zbek va qozoq tillarida kiyim-kechakka oid maishiy leksikaning ifodalanishi .....	637
Mumtozbegim Abduolimova, Mohidil Axunova. O'zbek tilida ekspressivlikning o'xshatish vositasi orqali ifodalanishi .....	644

# FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI


**MUHARRIR:** A. MUXTOROV  
**TEXNIK MUHARRIR:** O. MUXTOROV  
**SAHIFALOVCHI DIZAYNER:** D. AKRAMOV



Nashriyot litsenziyasi: 5209

Bosishga ruxsat etildi 31.10.2025.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ . Ofset qog'oz. Ofset bosma  
usulda bosildi. "Cambria" garniturasida.  
Shartli bosma taboq 41. Adadi 150 nusxa.

Original maket «Tafakkur» nashriyotida tayyorlandi.  
**Manzil:** Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Bunyodkor MFY,  
Ko'l 17-tor ko'cha, 9-uy. Tel: 71 2447588.  
Email: tafakkurmaktub@mail.ru

«Fan va ta'lim» nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.  
**Manzil:** Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy. Websayt: fanvatalim.uz  
**Email:** info@fanvatalim.uz **Tel:** +998 94 6644003.  
 @FANVATALIMGA